
Tumanda amalga oshirilgan obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari tahlili va muhokamasiga bag'ishlangan mabuot anjumani tashkil etildi



Tumanda amalga oshirilgan obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari tahlili va muhokamasiga bag'ishlangan mabuot anjumani tashkil etildi

Bugun tuman hokimligi majlislar zalida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev va Oliy Majlis deputati Ahmadjon G'aniyev ishtirokida matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirda mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari, korxonatashkilot va muassasalar rahbarlari, yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbir So'x tumanida 2023 yil davomida amalga oshirilgan obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari va 2024 yilga belgilangan rejalar yuzasidan tashkil etilib, mazkur mavzu ishtirokchilar tomonidan atroflicha tahlil qilindi. Tadbir avvalida mavzu bo'yicha tegishli mutasaddilar ma'lumoti ishtirokchilarga yetkazildi.

Savol va javoblarga, bahs-munozaraga boy bo'lgan tadbirda 2023 yil yakunlari va yangi 2024 yil rejalari muhokama etildi. Tuman hokimi tomonidan qilingan ishlar atroflicha tahlil qilib berildi. So'x tumaniga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarining barchasi So'x tumani aholisi manfaatiga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi. 2023 yilda qilingan amaliy ishlar 2024 yilda ham o'zining mantiqiy davomini topishi alohida qayd etib o'tildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-02-29 16:24:29